



SUV TA'MINOTI VA TANQISLIGI BO'YICHA STATISTIK KO'RSATKICHLAR TAHLILI

Tolipova Sarvinoz Valijon qizi
Guliston Davlat Universiteti talabasi

Norqulov Sulaymon Rashid o'g'li
Guliston davlat universitet talabasi

Turayeva Gulizahro Kaxxarovna
Guluston davlat universiteti o'qituvchisi

Abstrakt: *Suv resurslardan mukammal foydalanish va uni muhofaza qilishni asosiy vazifalaridan biri sanoat korxonalar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va maishiy-kommunal tarmoqlardan chiqadigan oqova suvlarni tozalab turli maqsadlarda ishlatish ekologiyani ustuvor yo'nalish bo'lib, bunda, ayniqsa, shahar oqova suvlarni biotexnologik tozalash muhim ahamiyatga egadir. Suv resurslarini tejash va suv manbalarini toza gigiyenik holda saqlash maqsadida turli oqova suvlarini biotexnologik tozalash usulini takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan ishlar hozirgi vaqtda o'zining dolzarbligi bilan suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi.*

Kalit so'zlar: *Eichhorniya crassipes, Pistia stratiotes, Azolla, Lemna minor.*


Kirish

Dunyoning ko'plab davlatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham ichimlik suvi tanqisligi dolzarb muammolardan biri. Buni aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 74,4 foiz ekanidan ham anglash qiyin emas. Jumladan, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida ichimlik suvi ta'minoti 60 foiz atrofida. Ta'minot ko'rsatkichi respublika bo'yicha eng past hudud – Qashqadaryo viloyatidir (51,6 foiz). Ichimlik suv avvalo cheklangan resurs hisoblanadi. Qolaversa, juda qimmat ijtimoiy xarajatlar toifasiga kiradi. Bu – butun dunyoda tan olingan haqiqat. Shunday ekan, suv hammaga yetishi uchun avvalo mamlakat miqyosida uni tejash talab etiladi. Ammo tan olib aytish kerakki, hozirgi tariflar bilan aholi o'rtasida tejamkorlik madaniyatini shakllantirib bo'lmaydi. Arzon narsa hech qachon qadrlanmaydi. Faqat bozor narxlarigina odamlarni suvni tejashga undashi, motivatsiya berishi va majbur qilishi mumkin.

Tahlil va natijalar (analysis & results)

Hozirgi paytda suvga bo'lgan talab va ehtiyoj har qachongidan tobora ortib bormoqda. Natijada butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilyapti. Ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o'tgani yo'q. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, 2050 yilgacha suv resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Boshqa tomondan esa, aholining o'sishi hisobiga, O'zbekistonda 2030 yilga borib, suvga bo'lgan talab 7 mlrd. kub metr ga yetishi, 2050 yilga borib esa, bu ko'rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin.

Jahon banki tahlillariga ko‘ra, 2050 yilga borib O‘zbekistonda suvga bo‘lgan talab 59 kub kilometrdan 62-63 kub kilometrgacha oshadi va mavjud suv resurslari 57 kub kilometrdan 52-53 kub kilometrgacha kamayadi. Bu esa joriy suv tanqisligini besh barobarga oshiradi. Ichimlik suvi ta‘minotidan foydalanishda asosiy xavflar – chuchuk suvning taqchilligi, foydalanish uchun raqobat, uning ifloslanishi, qurg‘oqchilik va boshqalardan iborat.



1-rasm. Mavjud suv resurslari va ulardan oqilona foydalanish

Raqlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, ichimlik suvini ishlab chiqirish va uni iste‘molchilarga yetkazib berilishidagi asosiy muammo – mavjud 10 942 ta suv inshootining 2 318 tasi (21,2 foizi), 89 ming km markaziy va ichki tarmoqlarning 23,6 ming km (26,5 foizi) qismi ta‘mirtalab holatga kelib qolganidir. (1-rasm) Ichimlik suvining o‘rtacha yo‘qotilishi respublika bo‘yicha 25,7 foizni tashkil etib, shundan texnologik sarflar 10,6 foiz, ta‘mirtalab tizimlarda vujudga kelayotgan avariylar natijasidagi yo‘qotishlar 15,1 foizni tashkil etadi.

Birgina Toshkent shahri misolida ko‘radigan bo‘lsak, 2021 yil yanvar oyidan beri tariflar oshirilmagani va xarajatlar karrasiga oshib ketgani natijasida 2022 yilda 15,7 mlrd so‘m, 2023 yil 1 sentyabr holatiga 42 mlrd so‘m zarar ko‘rilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion & Recommendation)

Aholining ichimlik suvi bilan ta‘minlanganlik darajasi 74,4 foiz bo‘lib, mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, 2050 yilgacha suv resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda Respublika bo‘yicha elektr energiya, reagentlar, tarmoqlarni joriy va mukammal



ta'mirlash bo'yicha sohada qo'shimcha xarajatlar yuzaga kelgan va ular avariya holatlarini qisqa muddatlarda bartaraf etish imkonini yaratadi. Bu esa, albatta, suv yo'qotishlar darajasini qisqartirishga xizmat qiladi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–yil 20–apreldagi PQ–2910–sonli Qarori. // www.lex.uz
2. Ergashev A., Otaboev SH., Sharipov R., Ergashev T. Suvning inson hayotidagi ekologik mohiyati. T., "Fan" 2009.
3. Rustamovich, U. S. (2017). Features of innovative water management in the modernization of economy. TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR), 6(1), 45-53.
4. Умаров, С. (2017). Основные направления инновационного развития водного хозяйства и его поддержка. Экономика и инновационные технологии, (1), 43-50.
5. Umarov, S. R. (1992). On the well-posedness of boundary value problems for pseudodifferential equations with analytic symbols. In Doklady Akademii Nauk (Vol. 322, No. 6, pp. 1036-1039). Russian Academy of Sciences.
6. Umarov, S. R. (1993). Some boundary value problems for elliptic equations with a boundary operator of fractional order. In Doklady Akademii Nauk (Vol. 333, No. 6, pp. 708-710). Russian Academy of Sciences.
7. Кароматов, И. Д., & Гулямов, Х. Ж. (2017). Медицинские вопросы, освещенные в Библии. Биология и интегративная медицина, (4), 55-75.
8. Gulyamov, X. (2023). INTER-ETHNICITY IN THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE. Interpretation and Researches, 1(12). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1314>
9. Bafoevich, U. B., Rasulovna, K. R. N., & Ziyodulloevna, K. S. (2021). REACTION OF 1, 1, 1-TRIFLUOROMETHYL-4-PHENYLBUTANEDIONE-2, 4 WITH BENZOIC ACID HYDRAZIDE. INFORMATION TECHNOLOGY IN INDUSTRY, 9(3), 939-944.
10. Rasulovna, K. R. (2023). Complex Nickel (Ii) Compounds Based on Acylhydrazones of Aroyltrifluoroacetylmethanes. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(10), 3-5.
11. Kochkarova, R. R., & Turgunov, E. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING CHEMISTRY LESSONS AT SCHOOL WITH THE HELP OF DIFFERENT GAMES. American Journal of Applied Science and Technology, 3(10), 15-19.
12. M.Z. Kuvatova, Sh.A. Turdiyeva, R.R. Kochkarova. (2023). USE OF VENN DIAGRAM AND NETWORK METHOD IN TEACHING THE TOPIC OF "IMPORTANT CLASSES OF INORGANIC COMPOUNDS" TEACHING METHODOLOGY IMPROVEMENT. International Multidisciplinary Journal for



- Research & Development, 10(10). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/223>
13. Toshtemirova Mokhira Makhmud qizi, & Jurakulova Durдона Shuxratovna. (2023). Parasites of the Oral Cavity. Genius Repository, 25, 19–20. Retrieved from <https://www.geniusrepo.net/index.php/1/article/view/176>
14. Rakhmonova Bakhora Kakhorovna, Marupova Madina Khikmatullayevna, & Toshtemirova Mokhira Makhmud kizi. (2023). IMPROVING THE SURGICAL METHOD OF SCAR MICROSTOMY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(9), 300–304. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/5572>
15. Makhmudovna, T. M., & Makhmadaminovna, K. D. (2023). THE COURSE OF MALFORMATION AND CORNEAL EROSION IN TUBERCULOSIS PATIENTS. Open Access Repository, 4(03), 60-66.

